“Eng faol innovator ayol” ko‘rik-tanlovi g‘oliblari aniqlandi

// 28 August 2025 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/eng-faol-innovator-ayol-ko-rik-tanlovi-g-oliblari-aniqlandi



Tanlov “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarida faoliyat yuritayotgan, jamoat ishlarida faol, iqtidorli 50 yoshgacha bo‘lgan mutaxassis xotin-qizlar o‘rtasida o‘tkazildi.

Ishchi guruh tomonidan barcha loyihalar chuqur tahlil qilinib, eng munosiblari aniqlandi. Jumladan:

1-o’rin - Abdurahmonova Yulduz - “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ
2-o’rin - Mirxaitova Nargiza - “Maxam-Chirchiq” AJ
2-o’rin - Qobilova Maftuna - “Navoiyazot” AJ
3-o’rin - Gaynullina Albina - “Ammofos-Maxam” AJ
3-o’rin - Norqulova Zulayho - “Navoiyazot” AJ

Taqdirlash marosimida “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari Yevgeniy Korjikov ishtirok etdi va g‘oliblarni ajoyib natija bilan qutladi.

Sovrindorlarga diplom va pul mukofotlari, tanlovda faol ishtirok etgan barcha xotin-qizlarga boshqaruvi raisi nomidan faxriy yorliqlar taqdim etildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati